UDK: 339.(075) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss2/a59**

MARKAZIY OSIYONING TABIIY-GEOGRAFIK, IJTIMOIY-IQTISODIY, LOGISTIK IMKONIYATLARINING GEOSIYOSIY JARAYONLARGA TA'SIRI.

ВЛИЯНИЕ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ, СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ, ЛОГИСТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ НА ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ.

THE INFLUENCE OF CENTRAL ASIA'S NATURAL-GEOGRAPHIC, SOCIAL-ECONOMICAL, LOGISTICS OPPORTUNITIES TO GEOPOLITICAL PROCESSES.

Xushnud Jumaniyozov[1]

[1]Xushnud Jumaniyozov − *Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, logistik imkoniyatlari yoritilgan. Markaziy Osiyo tushunchasi, uning hududi, maydoni bilan bog'liq tadqiqotlar tahlil qilingan. Mintaqada joylashgan davlatlarning tabiiy-geografik muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, logistik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Mintaqadagi jarayonlarni tahlil qilishda analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy taqqaoslash, umumlashtirish metodlaridan o'rinli foydalanilgan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены природно-географические, социально-экономические и логистические возможности государств Центральной Азии. Проанализированы исследования по теме понятие «Центральная Азия», ее границы, территория. Рассмотрены природно-географические условия, уровень социально-экономического развития, логистические возможности стран расположенных в регионе. При анализе рассматриваемых в статье процессов в регионе, использовались методы анализа и синтеза, историко-логический, сравнительного изучения, обобщения.

Abstract

In the article natural -geographical, social -economical and logistics opportunities if Central Asia's states have been considered. The research on the theme concept " Central Asia: its borders, territory have been analyzed. Natural - geographical conditions, social -economical development level, logistics opportunities of countries located in the region have been considered.Wnen analyzing processes in the region being considered in the article, analyses and synthesis, historical logical, comparative study, general conclusion methods have been used.

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Buyuk ipak yo'li, geografiya, logistika, milliy manfaat, geografik muhit, geosiyosiy omil, demografiya.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, Средняя Азия, Великий шелковый путь, география, логистика, национальный интерес, географическая среда, геополитический фактор, демография*

Key words: *Central Asia, Middle Asia, The Great Silk Road, geography, logistics, national interests, geographical environment, geopolitical factor, demography.*

KIRISH. Mamlakatimiz Markaziy Osiyoning qoq markazida G'arb va Sharqni tutashtiruvchi mintaqada joylashgan davlat. Sobiq ittifoq qulaganida Markaziy Osiyo davlatlari halqaro huquqning to'laqonli a'zosi sifatida maydonga chiqishdi. O'zining ulkan maydoni, unumdor yerlari, tabiiy zahiralari, ishchi kuchi, transport-olgistikasi, o'zlashtirilmagan ulkan ichki bozori sabab qator tadqiqotlar ob'ektiga tortildi.

Mamlakatimizning yaqin va uzoqdagi qo'shni davlatlar bilan keng ko'lamli hamkorligi mintaqadagi barqarorlikka bog'liq. 2017−2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning halqaro nufuzini mustahkamlash vazifalariga keng e'tibor qaratilgan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "O'zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O'zbekiston o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdoridir. Biz Markaziy

Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo‘yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz” [2].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР. Halqimiz qadimdan G‘arb va Sharqni birlashtirgan Buyuk Ipak yo‘li chorrahalarida joylashgan. Hududimiz o‘zining tabatiati, iqlimi, unumdor yerlari, qazilma boyliklari bilan keng e’tibor qozonib kelgan. Shu sabab ham uzoq o‘tmishda, ham bugungi kunda ijtimoiy siyosiy fanlarning muhim tadqiqot mavzusi bo‘lib kelmoqda.

Ma’lumki “Markaziy Osiyo” (o‘zb. *Markaziy Osiyo*, rus. Sentralnaya Aziya kaz. *Ortaliq Aziya*, mong. *Төv Azi*, turkm. *Merkezi Aziýa*, kirg. *Borbor Aziya*, tadj. *Osiyoi Markazū*, pers.آسیای مرکزی, urdu وسط ایشیا, kit. 中亚) — atamasi ijtimoiy-siyosiy ADABIYOTLARga nemis geografi Aleksandr Gumbolt tomonidan 1843 yilda kiritilgan edi. Odatda Markaziy Osiyo deyilganda dunyo okeaniga chiqish imkoni bo‘lmagan O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston hududlari kiritilgan. Тадқиқотчи Савицкий бу минтақага нисбатан Турон атамасини кенг қўллайди[3].

Sobiq ittifoq davridagi geografik manbalarda “O‘rta Osiyo” atamasi keng qo‘llanilgan. Unga Qozog‘iston kiritilmagan. Shu tariqa O‘rta Osiyo va Qozog‘iston atamalari alohida tushuncha sifatida qo‘llanildi. Sovet davlati qator iqtisodiy rayonlarga bo‘linishi bu atamalarning ishlatilishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin [4].

YuNESKO tomonidan e’tirof etilishicha Markaziy Osiyo mintaqasi o‘z ichiga Qozog‘iston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston, Monogoliya, G‘arbiy Xitoy, Tibet, Ichki Monogoliya, Panjob, Kashmir, Shimoliy Hindiston, Shimoliy Pokiston, Shimoliy-sharqiy Eron hududlarini oladi. Shuningdek ba’zan Markaziy Osiyo hududini belgilashda etnik asosda yondashuv ham mavjud. Unga asosan turkiy halqlar, mo‘g‘ul va tibetliklar yashaydigan o‘lkalar nazarda tutiladi.

1990-yillarga kelib amerikalik siyosatshunos Maykl Mandelbaum bu atamaning mohiyatini butunlay boshqacha talqin etishga kirishdi. Uning fikricha Markaziy Osiyo deyilganda sobiq sovet respublikalari (jumladan Qozog‘iston ham), G‘arbiy Xitoy (Shinjon-Uyg‘ur avtonom o‘lkasi), Afg‘oniston, Hindiston-Pokiston chegaralari tutash mintaqalar va Mongoliya hududlarini tushunish lozim. Albatta bu mintaqa xalqlari turli davrlarda, ba’zan turli saltanatlar tarkibida hamisha iqtisodiy, madaniy aloqalarda bo‘lib kelishgan. Ko‘rinib turibdiki, bunday fikrga kelishga qator tarixiy, madaniy, iqtisodiy asoslar mavjud. Ikkinchi tomondan Markaziy Osiyo hududiy kengliklarini bunday yoritishdan maqsad Rossiyaning Markaziy Osiyoga bo‘lgan tarixiy da’vosini yo‘q qilish maqsadida sharhlangan bo‘lishi ham mumkin [5].

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА. Yangi ming yillik arafasida Markaziy Osiyo davlatlari o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritib halqaro huquqning, halqaro munosabatlarning to‘laqonli subyektiga aylanishdi. Bu davlatlar mustaqil siyosiy rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yangilash yo‘liga qadam qo‘yishdi. Ular o‘zining ijtimoiy –iqtisodiy rivoji darajasidan, salohiyatidan kelib chiqib dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o‘z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Bu davlatlar oldida hayot sinovidan o‘tmagan, muvaffaqiyatsiz tarixiy tajribaning fojiali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turar edi. Ular erkin bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan, demokratik, inson huquqlari va erkinliklari ishonchli himoya qilinadigan chinakam fuqarolik jamiyati barpo etishdek murakkab vazifa turardi.

Bunday vazifalarning yechimi haqida gap borganida avvalo bu davlatlar ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning qanday bosqichida turgani, ularda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo o‘z hududi, joylashgan o‘rni, geostrategik, tabiiy-fizik imkoniyatlari zamonaviy halqaro siyosatning muhim ahamiyat kasb etadigan nuqtasi hisoblanadi. Sobiq ittifoq qulagach halqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida mintaqa davlatlari halqaro maydondagi rang-barang integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishmoqda. An’anaviy “Qozog‘iston va O‘rta Osiyo” atamasidan voz kechildi.

Markaziy Osiyo o‘z hududi, joylashgan o‘rni, geostrategik, tabiiy-fizik imkoniyatlari zamonaviy halqaro siyosatning muhim ahamiyat kasb etadigan nuqtasi hisoblanadi. Sobiq ittifoq qulagach halqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida mintaqa davlatlari halqaro maydondagi rang-barang integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishmoqda. O‘zining aholisi, ishchi kuchi, hududi, tabiiy zahilari, transport logistikasi, yuksak fan-texnikasi taraqqiy etgan Xitoy, Hindiston, Rossiya, Yaqin Sharq mintaqalarini tutashtiruvchi bo‘g‘in sifatida ham Markaziy Osiyo muhim ahamiyat kasb etadi. Afg‘oniston bilan qo‘shib hisoblaganda 4.5 million kv.km maydonga ega bo‘lib, sakson milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Mintaqada joylashgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik-fizik ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagi manzaraning guvohi bo‘lish mumkin.

Qozog‘iston Yevrosiyo materigining markazida joylashgan davlat. Maydoni 2.724 million kv.km teng bo‘lib, jahonda maydoni jihatidan 9-o‘rinda turadi. Qozog‘iston tabiiy zahiralarga nihoyatda boy.

Oltin, kumush, xrom, svinets, volfram zahiralari miqdori jihatidan jahonda yetakchi o‘rinni egallaydi. Mamlakatning markaziy qismida mis konlari, nodir metallar ko‘plab uchraydi. Shimoliy hududlarida toshko‘mir zahiralari joylashgan. Mang‘ishloq viloyati atroflari neft-gaz zahiralariga juda boy hisoblanadi. Mamlakat iqlimi kontinental xarakterga ega. Bepoyon tekisliklar bag‘rida olti mingga yaqin o‘simlik turlari o‘sadi, besh yuzdan ortiq turdagi qushlar, 180 ga yaqin yovvoyi hayvonlar, suvlarida yuzdan ortiq baliq turlari yashaydi. Umumiy maydoning 5,5 % ini o‘rmonlar tashkil qiladi[6].

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o‘rtasida joylashgan bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlarini tutashtirib turadi. Shimolda Qozog‘iston, sharqda Qirg‘iston va Tojikiston, janubda Afg‘oniston, g‘arbda Turkmaniston davlatlari bilan chegaralanadi. O‘zbekiston tabiiy minerallar zahiralarga nihoyatda boy. Yuzga yaqin turdagi mineral qazilma turlari uchraydi. Oltin, kumush, xrom, svinets, volfram, uran zahiralari miqdori jihatidan jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Markaziy Osiyoda mavjud gaz kondensatlarining 74% i, tabiiy gaz zahiralarinng 40 %i, toshko‘mirning 55 % i O‘zbekistonga to‘g‘ri keladi. Uran zahiralari bo‘yicha jahonda oltinchi o‘rinda turadi. Umumiy maydonning katta qismini sahrolar tashkil qiladi. Iqlimi va unumdor tuprog‘i dehqonchilik uchun nihoyatda qulay.

Tojikiston Markaziy Osiyo mintaqasining janubiy-sharqida joylashgan. Tog‘ qismi mamlakat umumiy maydonining 90 % ini tashkil etadi. Turli-tuman tabiiy qazilmalarga ega. Svinets, molibdne, volfram, mis, oltin, kumush, uran, temir rudalari aniqlangan. Shuningdek sanoat va qurilish sohalarida ishlatiladigan qator qazilmalar ko‘plab uchraydi. Shuni aytish lozimki ayni damda mamlakat gidroenergetik manbalarga juda boy. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining katta qismini GES lar beradi. Iqlimi subtropik xarakterda ba’zi mavsumlarda keskin o‘zgarib turadi. Mamlakatda, yengil sanoat, to‘qimachilik sanoati, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalari keng rivojlangan. Shuningdek rangli metallar jumladan alyuminiy ishlab chiqarish, metallurgiya sanoati qo‘lga qo‘yilgan. Eksport qilinayotgan mahsulotlarning asosiy qismini ham alyuminiy, oltin, to‘qimachilik mahsulotlari tashkil etadi. Import eksportga nisbatan 3.2 marotaba yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilib kelmoqda [7].

Qirg‘iziston Markaziy Osiyo mintaqasining shimoliy-sharqida joylashgan. Tojikiston, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Xitoy davlatlari bilan chegaralanadi. Turli xil kristallar, marmar, slanets, oltin, molibden, temir rudalari konlari uchraydi. Tog‘li hududlar ko‘pligi sabab gidroenergetik manbalar salmoqli o‘rin egalaydi. Sanoat rivoji nihoyatda pastligicha qolmoqda. Ayniqsa transport logistikasi juda qoloq. 2018-yilgi hisob-kitoblarga qaraganda eksport 1,765 milliard dollarni (AQSh) tashkil qilgan bo‘lsa, import 4,907 milliard dollarni tashkil qilgan [8].

Turkmaniston davlati Markaziy Osiyoning janubiy-g‘arbidan joylashgan. Janubda Eron va Afg‘oniston bilan, shimolda Qozog‘iston, shimoliy-sharqda O‘zbekiston bilan tutashgan. Mamlakatning g‘arbiy chegaralarini Kaspiy dengizi yuvib turadi. Mamlakat hududining sakson foizdan ortig‘ini Qoraqum sahrosi tashkil qiladi. Tog‘ tizmalari kam uchraydi. Lekin bu sahrolar tabiiy zahiralarga nihoyatda boy hisoblanadi. Uning bag‘rida neft, gaz, oltin, oltingugurt konlari ko‘plab uchraydi.

Yalpi ijtimoiy mahsulot tarkibining 34 % ini sanoat ishlab chiqarishi tashkil etgani holda qishloq ho‘jaligining hissasi 10 % ga to‘g‘ri keladi. Xususiylashtirish faqatgina ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohalarida mavjud. Sanoat, transport, aloqa, energetika hozirgacha davlat sektori tarkibida qolmoqda. Yoqilg‘i-energetika mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo‘yicha mamlakat jahonda to‘rtinchi o‘rinda turadi. Shunday ekan neft va gazni qayta ishlash sanoati yuksak taraqqiy etgan. Transport logistikasi yaxshi rivojlanmagan. 2010-yilda Eron bilan quvur transporti ishga tushirildi[8]. Turkmaniston-Afg‘oniston-Pokiston-Hindiston (TAPI) quvur transporti qurib bitkazilishi bilan bog‘liq muammolar ko‘p. Albatta avvalo Afg‘onistonda barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining jahonning yetakchi davlatlarining e’tiborini o‘ziga jalb qilganligini kuyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- Markaziy Osiyo davlatlari materikning muhim geostrategik qismida joylashgan. Bu hududidan eng muhim transport logisikasi liniyalari o‘tadi. Hind, Xitoyni, umuman Sharq mamlakatlarini G‘arb bilan bog‘lab turadi;
- hudud qator tabiiy qazilma boyliklariga ega. Mintaqa katta mikdorda qimmatli metallar xom —ashyosi va energetik resurslarga ega, ayniqsa Kaspiydagi neft va gaz zahiralari e’tiborga molik;
- bu hududda joylashgan davlatlar aholisi, halq ho‘jaligi hozirgi paytgacha to‘liq egallab olinmagan katta hajmdagi ichki bozorga ega;
- bu davlatlarning ishlab chiqarish va kommunikatsiya tarmoqlarini yanada yuksaltirish natijasida qo‘shni davlatlar davlatlar bilan savdoda qulay imkoniyatlarga ega bo‘lish mumkin;
- mintaka juda katta mikdordagi investitsiyalarni o‘zlashtira oladi, ayniksa xom —ashyo

qazib olish va eksport qilish tarmoqlari;

• yetakchi davlatlar mintaqa saloihiyatidan, uning ishchi kuchidan unumli foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etish orqali o‘zlarining qator manfaatlarini qondirish imkoniga ham ega bo‘lishadi.

XULOSA. Mintakada o‘z manfaatlariga ega bo‘lgan davlatlarning Markaziy Osiyoga va bu yerda kechayotgan integratsiya jarayonlarga nisbatan yondashuvlari ma’lum bir tamoyillar asosida olib borilmokda. Ular orasida «geosiyosiy mintaqaviylik» tamoyili yaqqol ajralib turadi. Bu tamoyil Markaziy Osiyo mintakasini yagona geosiyosiy makon, umumiy siyosiy va iktisodiy manfaatlarga ega bo‘lgan xudud sifatida karash imkonini beradi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlar tahlili yuzasidan quyidagi taklif va xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, keng ko‘lamli halqaro hamkorlik O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir. Bunday hamkorlik bironta davlatning mintaqada monopol ustunligiga imkoniyat bermaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi kabi halqaro tuzilmalar bilan aloqalarni yangi bosqichda davom ettirmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorligimiz tiklandi, Yevropa investitsiya banki bilan sheriklik aloqalari o‘rnatildi. Jahon banki, Halqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalar banki bilan o‘zaro hamkorlik samarali tus olmoqda” [2].

Ikkinchidan, mintaqa mamlakatlari o‘rtasida ahil qo‘shnichilikka asoslangan munosabatlarni yangicha bosqichga ko‘tarish, yanada yuksaltirish tashqi ta’sirlarga munosib javob beradi. Jahonning yetakchi davlatlari bu mintaqada ustunlik uchun emas, o‘zaro hamkorlikka asoslangan, manfaatli hamkorlikka asoslangan faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratish lozim.

Uchinchidan, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gap ketganida, eng avvalo, halqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Obro‘li halqaro tashkilotlarp ishidagi o‘z ishtiroki bilan O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va totuvlikni ta’minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e’tiborini qaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan ADABIYOTLAR ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda. (Указ Президента Республики Узбекистан. О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан), (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. On the strategy of further development of the Republic of Uzbekistan).

2. Mirziyoyev Sh.M. Halqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2018. (Согласие нашего народа-высшая оценка нашей деятельности), (The consent of our people is the highest value given to our activities)

3. Желтов В.В. Геополитика: история и теория. М.: Вузовский учебник, 2009. с 288. (Geopolitics: history and theory).

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Центральная Азия

5. Jumaniyozov X.S. Geosiyosat asoslari.T.: 2021. 188-б

6. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Казахстан

7. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Таджикистан

8. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Киргизия

9. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Туркменистан